

## **O'zbekiston kasaba uyushmalar Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi Yoshlar birlashmasining 2022 yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida ma'lumot**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning izchil islohotlar va yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirayotgani asnosida davlatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi demokratik qiyofasi yaratilmoqda.



So'nggi besh yildagi islohotlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keskin ijobjiy o'sishlar kuzatildi.

Shu jumladan, "**Yangi O'zbekistonda-Yangi kasaba uyushmalar**" shiori ostida kasaba uyushmalar Federatsiyasi va uning tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan tizimida ham juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi.



Yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk vazifa strategik maqsad qilib olingan yurtimizda "Inson qadri uchun" g'oyasini umummilliy harakatga keltirishda hamda yurtimizni keng imkoniyatlар va amaliy ishlar mamlakatiga aylantirishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda hech shubhasiz, kasaba uyushmalarini ham muhim o'rinn tutadi.



Birgina O'zbekiston kasaba uyushmalarini Federatsiyasi Navoiy viloyat Kengashining 2022 yil 28 fevraldagagi yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar DASTURIga asosan amalga oshirilgan ishlar ijrosi to'g'risida ma'lumot.

"O'zbekiston kasaba uyushmalarini Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashining 2022 yil yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi" asosida tuman kengashlari, boshlang'ich kasaba uyushmalar tashkilotlarida birlashma va komissiyalarning Dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.



Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi 27 ta yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishlarning har biri aynan yoshlarimizni rag‘batlantirish, ulara e’tibor va saloxiyatli yoshlar safini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Yosh tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xaridchlarni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Qo‘l mehnati mahsulotlari”, “Korxonamiz mahsulotlari” ko‘rgazmalarini tashkil etildi. Bu tadbirda 700 dan ortiq yoshlar ishtirok etdi.



Joriy yilning 20 aprel sanasida Karmana tuman 25-maxsus maktab internatidagi imkoniyati cheklangan yoshlar holidan xabar olinib, ularning viloyatdagi muzeylarga tashriflari tashkil etildi va tadbir doirasida ularga sovgalar topshirildi. 100 nafar yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.

“Besh tashabbus - besh imkoniyat” loyihasi doirasida 1000 dan ortiq yoshlarni viloyat muzeylariga tashrifi tashkil etildi.



Ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali kasaba uyushmalari yoshlari yetakchilarining “Siz kasaba uyushmasi faoliyatini bilasizmi?” mavzusida intervyu, yangiliklar bilan chiqishlari muntazam ravishda tashkil etib borildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat kengashi tizimidagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarda “Ma’naviyat soatlari” tashkil etildi va ularda 4 mingdan ortiq yoshlarning ishtiroki ta’mindandi. Ma’naviyat soatlariiga deputatlar, ma’naviyat markazlarining tuman va shahar bo‘limlari mutaxassislari jalb etildi.



O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Navoiy viloyati Kengashi tomonidan “7 aprel – Butunjahon calomatlik kuni” kasaba uyushmalari e’tiborida shiori ostida yurish marafoni o’tkazildi. Navoiy shahar “Nuroniylar maskani” oldidan “Yoshlik ko‘li” atrofi bo‘ylab yurish marafonida 1000 ga yakin yoshlari ishtirok etdi.



“28 aprel butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni”ga bag’ishlab o’tkazilgan tadbirlarning barchasida yoshlarning faol ishtiroki ta’mindandi.

Yoshlar bilan ochiq muloqotlar o‘tkazish yo‘nalishida viloyat kengash raislari, mas’ul tashkilotchilar va birlashgan kasaba uyushma qo‘mita raislari tomonidan muntazam ravishda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlarda 3 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etdi.



Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’sis etilgan “Kasaba uyushmalari stipendiyasi” bo‘yicha Nizom talablari asosida talabalar ro‘yxatini shakllantirildi hamda tanlab olingan 1 nafar nomzod NDPI talabasi Namozova Nilufarga stipendiya ajratildi.

Tizimda faollik ko‘rsatib kelayotgan yosh xodim, chin yetim, ijtimoiy muhofazaga muhtoj “Nafoiyazot” AJ ishlovchi 1 nafar yosh xodimga kasaba uyushmalarining sanatoriysida sog‘lomlashtirish uchun bepul yo‘llanma ajratilib, sog‘lomlashtirildi.



Yoshlar tomonidan nuroniylar holidan xabar olish orqali yoshlar ongida oila muqaddasligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik g‘oyalarini rivojlantirish maqsadida “Nuroniylar e’zozimizda” aksiyalari tashkil etilib, ushbu aksiyalarida 700 nafar yoshlarning faol ishtiroki ta’mindan.



“18 may - Xalqaro muzeylar kuni” munosabat bilan bilan O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi hamda Navoiy davlat pedagogika instituti hamkorligida kasaba uyushmasi faollari va institutning talaba yoshlarining NDPI tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi”ga tashrifi uyushtirildi. Xodimlar va yoshlar muzeydagi asoru-atiqalar, qadim o’tmishdan so‘zlovchi tarixiy eksponatlarni tomosha qilib, qatag‘on davrida halok bo‘lgan vatanparvar ziyorilar hayoti bilan yaqindan tanishishdi. Eksponatlarni kuzatish jarayonida mutaxassislardan qimmatli ma’lumotlar ham olishdi.



O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan “O’zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida joriy yilning 13-14 may kunlari Navoiy viloyatidan bir guruh yosh ishchi-xodimlar va mehnatkashlarning oila a’zolari hamda “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turuvchi jami 50 nafardan iborat yoshlarning Toshkent shahriga sayohati tashkil etildi. Mazmunli sayohat davomida ular poytaxtimizda barpo etilgan “G’alaba

bog‘i” va uning tarkibidagi “Shon-sharaf” davlat muzeyi, shuningdek O’zbekiston tarixi davlat muzeyi, “Yangi O’zbekiston bog‘i”, Zangiota ziyoratgohlarida bo‘ldilar. Ushbu sayohatlar davomida yosh xodimlarga mamlakatimizdagi mavjud tarixiy maskanlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berildi.

Joriy yilning 13 may kuni viloyat Kengashining faollar zalida “15 may – Xalqaro oila kuni munosabati” bilan Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi, viloyat Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi bilan hamkorlikda O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi faollar zalida “Oila – muqaddas dargoh” mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Ushbu sohalarda mehnat qilayotgan barcha tizimdagи xodimlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan tadbirda viloyat bojxona boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Erkin Rahmatov kirish so‘zi bilan ochib, tadbirning maqsadi va dolzarbliги haqida gapirdi.

Navoiy shahar tibbiyat birlashmasi majlislar zali, RShTYoIM Navoiy filiali majlislar zali, Karmana, Xatirchi, Navbahor, Nurota, Konimex, Qiziltepa TTblarda Navoiy va Zarafshon shahar tibbiyat birlashmalarida, Navoiy viloyati perinatal markazi majlislar zali hamda viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyat markazi majlislar zalida yoshlar o‘rtasida oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish bo‘yicha “Davra suhbatlari” tashkil etildi. Tadbirlarda 350 nafar yoshlarning ishtiroki ta’minlandi. Mazkur uchrashuvlavrda 1000 dan ortik yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.



Joriy yilning 21 iyun kunida Zarafshonlik yoshlar ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘scha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O’zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini, ayniqsa yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan va uni amalga oshirishda kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda.



Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashiga a'zo korxona va tashkilotlarda muntazam ravishda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etilib kelinmoqda.

Joriy yilning 11-iyun kuni Zarafshon shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi raisi Nazira Tog'ayeva, O'zbekiston Ta'lif va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Navoiy viloyati bo'yicha mas'ul tashkilotchisi Anora Bobomurodova, viloyat kengashining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Dilafro'z O'razova, Ta'lif va fan xodimlari kasaba uyushmasi Zarafshon shahar bo'linmasi kengashi Linura Ostonoyevalar ishtirok etdi. Ta'lif va fan xodimlari kasaba uyushmasi Zarafshon shaxar bo'linmasi kengashi tizimidagi tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan yosh xodimlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislari tomonidan atroflicha javob olishdi. Tadbir so'ngida yoshlarga kasaba uyushmasiga a'zo bo'lishning afzalliklari, sanatorylar haqidagi ma'lumotlar, yoshlarga oid yangiliklar to'g'risidagi buklet va tarqatma materiallar taqdim etildi. Tadbirda 100 ga yaqin yoshlarning ishtiroki ta'minlandi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy Kengashining majlislar zalida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

to‘g“risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasining umumxalq muhokamasi” mavzusida davra suhbat bo‘lib o‘tdi.



Joriy yilning 25 iyun kuni O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashining majlislar zalida “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g“risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasining umumxalq muhokamasi” mavzusida kasaba uyushmasi faollari va yoshlari ishtirokida davra suhbat bo‘lib o‘tdi.

Unda O’zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi raisi Nazira Tog‘ayeva, viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari Normurod Isoqov, Ta’lim va xodimlari kasaba uyushmasining Navoiy viloyati bo‘yicha mas’ul tashkilotchisi Anora Bobomurodovalar, tarmoq kasaba uyushmasi raislari, viloyat kengashining apparati xodimlari, yirik boshlang‘ich tashkilot kasaba uyushma qo‘mitasi raislari hamda kasaba uyushmalari faollari ishtirok etdi. Davra suhbatini viloyat kengashi raisi kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shundan so‘ng viloyat kengashi raisi o‘rinbosari Normurod Isoqov, Anora Bobomurodovalar so‘zga chiqib, mavzu yuzasidan nutq so‘zladi.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar xalqimizning xohish istagi, ezgu maqsadlari ifodasi hamda demokratik islohotlarning mantiqiy davomi ekanligi ta'kidlandi. Tadbir doirasida kasaba uyushmalari tizimidaga har bir mehnat jamoasida “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasining umumxalq muhokamasi mavzusida tadbirlar o'tkazilishiga kelishib olindi. Tadbir yakunida konstitutsiyaviy islohotlar borasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi bo'yicha siyosiy bilimlarini oshirish, taklif hamda mulohazalarini jamlash vazifalari qo'yildi.

Joriy yilning 13 iyun kunida “FAOL VA TASHABBUSKOR YOSHALAR OYLIGI” DOIRASIDA Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Navoiy viloyati bo'limi hamda viloyat Kengashi hamkorligida “Yoshlar – kelajak bunyodkori” degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan “Faol va tashabbuskor yoshlar oyligi” doirasida Karmana tumanida joylashgan “Ishonch” bolalar oromgohida “Maroqli yoz – ma'naviyat bilan o'tmoqda soz!” nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



“Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni”ga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Navoiy viloyati Karmana tumanida joylashgan “Ishonch” BSO da joriy yilning 11 iyun kunida “Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan “Bolalar mehnatiga barham berish uchun umumiyligi ijtimoiy himoya!” shiori ostida karantin qoidalariga amal qilgan holda hamkor tashkilotlar bilan birqalikda tadbir tashkil etildi.

## BOLALAR – BAXTLI KYE LAJAGIMIZ

Butun dunyo bo‘ylab har yilning 1 iyun sanasida xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida keng nishonlanadi. Bizning mamlakatimizda har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, avvalo, oila, onalik hamda bolalikni muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilab olinib, bu ijtimoiy siyosat darajasiga ko‘tarilib kelmoqda. Inson farzandi uchun yashaydi, dilbandlariga umrini baxshida etadi. 1 iyun kuni O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat Kengashi tomonidan “Bolalar-bizning baxtli kelajagimiz” shiori ostida bayram tadbiri tashkil etildi. Shuningdek, viloyat Kengashi raisi va o‘rinbosari hamda yoshlar ishtirokida kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan hamda nogironligi bor bolalar holidan manzilli xabar olinib, ularga esdalik sovg‘alari topshirildi.



Viloyatda 11 ta statsionar oromgohda 11 460 nafar, 7 ta kunduzgi oromgohda 1 280 nafar, jami 18 ta oromgohda 12740 nafar bolalar sog‘lomlashtirilib, Xalq ta’limi tizimidagi umumiyligi o‘rtaligida muassasalarning 148 tasida 26 269 nafar bolalar sog‘lomlashtirildi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyati kengashi tomonidan 2022 yilda 11 ming 460 nafar bolajonlarning yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlarida maroqli dam olishlariga erishildi. Bundan tashqari, **3000 nafarga yaqin yosh** ishchi-xodimlarning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi tarixiy shaharlarga va diqqatga sazovor joylarga sayohatlari tashkil etildi. Yosh xodimlar va ularning oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini tadbiq etish ularni ommaviy sportga jalb etish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan viloyat va tuman

miqyosida **100 dan ortiq** sport tadbirlari tashkil etildi. “**Keksalar haftaligi**” doirasida “**Keksalarни e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko’rsatish xalqimizga xos ezgu fazilat**” g’oyasi ostida **1500 ga** yaqin mehnat jamoalarida **4400 nafardan** ortiq mehnat faxriylari, ustoz-murabbiylar, keksa avlod vakillari ishtirokida “Uch avlod uchrashuvi” tadbirlari tashkil etildi. Ushbu tadbirlar uchun jami **120 mln** so‘mlik mablag‘lar ish beruvchi, homiyalar va kasaba uyushmalari hisobidan sarflandi.

Mehnat jamoalaridagi yoshlar o‘rtasida “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi va “11 noyabr – Kasaba uyushmalari kuni to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari mazmun-mohiyati bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borildi.

“11 noyabr - O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” munosabati bilan Navoiy garnizonida joylashgan 20022-sonli harbiy qismda harbiy xizmatchilar bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbirda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari Isoqov Normurod Isroilovich ishtirok etdi, hamda tadbir ishtirokchilarini bayram bilan samimiy qutladi. Shuningdek, vatan ravnaqi va Yurt taraqqiyoti yo‘lida ulkan mas’uliyat bilan mehnat qilayotgan kasaba uyushmasi tizimi to‘g‘risida harbiy xizmatchilarga tushuncha berdi. Ularni “YANGI O‘ZBEKİSTONNING YANGI KASABA UYUSHMALARI” shakllangan davrda mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdek olajanob maqsad yo‘lida munosib hissasi bor jamoat tashkilotiga a’zo bo‘lishga, hamda bir maqsad, bir maslak yo‘lida birlashishga chaqirdi.



Viloyatdagi yangi ochilgan korxona va tashkilotlarni kasaba uyushmasi a’zoligiga jalg etish bo‘yicha “Har bir yosh yetakchiga 30 ta tashkilot” shiori ostida targ‘ibot ishlari olib borildi.

“3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan kasaba uyushmasi

faollarining Qiziltepa tumanidagi 36-maxsus mактабга ташрифини уюсhtирishтирildi. Viloyat kengashi hamda Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Qiziltepa tuman kengashi bo'linmasi tomonidan Nogironlar kuni munosabati bilan yakka yolg'iz,nogiron xozirgi vaqtida nafaqada bo'lган 7 nafar soxa xodimlar xolidan xabar olindi va 1700.0 ming so'mlik oziq ovqat maxsulotlari olib berildi. Shuningdek, Ko'zi ojizlar kuni, 8 dekabr-“o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” munosabati bilan Ko'zi ojizlar jamiyati Karmana UIChK MChJ kasaba uyushmasi faollaridan 8 nafariga Viloyat kasaba uyushmalari kengashi raisi N.Tog'ayeva bilan birgalikda bayram sovg'alari topshirilib, ish jarayonlari bilan tanishildi va ular holidan xabar olindi.

“8 dekabr-Konstitutsiya qabul qilingan kuniga bag'ishlab oliy ta'lim muassasalarida “Konstitutsiya huquq va erkinligimiz kafolati” mavzusida NDPI talabalari ishtirokida targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.



2022 yilning 14 dekabr kunida Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufidagi Axborot resurs markazida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyati Kengashi raisi N.Tog'ayeva, Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining viloyatdagi mas'ul tashkilotchisi A.Bobomurodovalar ishtirokida ta'lim muassasasining sirtqi bo'limida tahsil olayotgan 100 dan ortiq talabalar ishtirokida “Yoshlar - O'zbekistonning eng katta boyliklari” mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



“Yoshlar - O‘zbekistonning eng katta boyliklari” mavzusidagi bugungi tadbirni o‘tkazilishi zamirida ham yurtimiz ravnaqi yo‘lida mehnat qilishga shay turgan bugungi kun yoshlari hamda bu borada tajriba maktabini o‘tayotgan rahbarlarning dildan muloqoti bosh maqsad qilib olindi.

#### DONOLIK, NAVQIRONLIK VA SHIJOAT NAMOYISHI

Konimex tumani “Uchtepa” ovul fuqarolar yig‘inida “Ibrat maktabi” shiori ostida “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda bir guruh hamkor tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashining ham ishtiroki ta’minlandi. Karnay-surnay sadolari ostida “Uchtepa” ovul fuqarolar yig‘inidagi keng jamoatchilikning uch avlodni bir joyga jam bo‘lishdi. Tadbir ishtirokchilaridan 20 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan fuqarolarga va ularning farzandlari uchun kasaba uyushmadari tomonidan esdalik sovg‘alari ulashildi. Donolik, navqironlik va shijoat namoyishidan mammunlik egulikka qaratilgan maqsadlarimizga yanada kuch bag‘ishladi.



2022 yil davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Ishonch" va "Ishonch-Doveriye" gazetalarida "Yoshlar minbari", "Yosh avlod – yangi imkoniyatlar", "Jamoa shartnomasida yoshlar haq-huquqlari himoyasi" ruknlari orqali yosh mehnatkashlar faoliyati muntazam ravishda yoritilib borildi.



